



EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHDA KONSTITUTSIYA NORMALARINING ROLI

Muhammadjon Tursunov

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

tursunovm976@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11195493>

Annotatsiya

Tezisd a O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirishda konstitutsiya normalarining o'rni muhokama qilingan. Muallif O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ushbu mavzuga bag'ishlangan normalarini hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, atrof-muhit, tabiat, konstitutsiya va atrof muhit, qonunchilik, norma.

Abstract


The article discusses the role of constitutional norms in the improvement of legislation in the fields of ecology and environmental protection in the Republic of Uzbekistan. The author analyzed the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan on this topic and other legal documents.

Key words: ecology, environment, nature, constitution and environment, legislation, norms.

Atrof-muhitga antropogen ta'sir misli ko'rilmagan darajada bo'lgan zamonaviy dunyoda tabiatni muhofaza qilish masalasi birinchi o'ringa chiqadi. Bu jarayonda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan normalarning konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan mustahkamlanishi alohida rol o'ynaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni kompleks tizimini shakllantirish uchun asos bo'ladi. Konstitutsiya normalari tabiatni muhofaza qilish printsiplari va yondashuvlarini belgilaydi hamda davlatning bu boradagi siyosati va fuqarolarning huquqlarini o'zida aks ettiradi.

Umumiy konstitutsiyaviy normalarning ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, birinchidan, ularda ekologik munosabatlar to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan; ikkinchidan, ushbu normalar ekologik qonunchilikning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga bo'lgan asosiy qoidalarni belgilab beradi. Shu o'rinda amerikalik huquqshunoslar mamlakat Konstitutsiyasini ekologiya huquqi normalari shakllanadigan huquqiy tizim uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi "bilvosita manba" sifatida ta'riflaydilar. AQSh





ekologik qonunchiligida asosiy o'rinni konstitutsiyaviy qoidalarni sud sharhi egallaydi hamda u ekologik munosabatlarni har qanday sohada qo'llashni nazara tutadi.

AQSh Konstitutsiyasidan farqli ravishda mamlakatimiz Asosiy qonunida ijtimoiy-siyosiy tusdagi normalar bilan bir qatorda atrof tabiiy muhitni muhofaz qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga soluvchi maxsus ekologik me'yorlar ham mavjud. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maxsus ekologik normalari tizimi quyidagicha: fuqarolarning ekologik burchi; mulkdan foydalanishning ekologik talablari; davlat ekologik siyosatini amalga oshirish printsiplarini belgilab beruvchi normalar; mahalliy hokimiyat organlarining ekologiya sohasidagi vakolatlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasiga muvofiq, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi¹.

Ushbu moddaning ahamiyati birinchidan, fuqarolarning yashash uchun maqbul bo'lgan tabiiy sharoitlarga ega bo'lish, har bir fuqaroning atrof tabiiy muhit holati va unda bo'layotgan o'zgarishlar haqidagi axborotni olish hamda tanishish imkoniga ega bo'lishini hamda fuqarolarning muhim ekologik huquqlarni davlat organlari tomonidan amalga oshirish mexanizmlarini belgilashga xizmat qilsa.

Ikkinchidan, ushbu konstitutsiyaviy normalar ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qonunchilik tizimini shakillantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizda mazkur konstitutsiyaviy normalar asosida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda aholi salomatligini asrash bo'yicha 30 dan ziyod qonunlar va 200 yaqin qonun osti hujjatlari qabul qilingan².

¹ <https://lex.uz/docs/-6445145#:~:text=49%2D-,modda.,-Har%20kim%20qulay>

² <https://old.ekolog.uz>






Jumladan, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi, “Chiqindilar to‘g‘risida”gi, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi, “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar qabul qilinishi atrof-muhit va aholi salomatligi muhofaza qilishni huquqiy asoslarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi³.

Shuningdek, so‘nggi yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur sohaga taalluqli 10 dan ortiq ta farmon va qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30 dan ortiq qarorlari ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlashdagi islohotlarni samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish bo‘yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining biologik resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda “yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonzorlari barpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalardan foydalanishni tartibga solish va ulardan foydalanish sohasida ruxsat berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi, “Tabiatni muhofaza qilishni ta‘minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari shular jumlasidandir.

³<https://lex.uz>





Ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish, sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bu orqali O'zbekistonning barqaror rivojlanishi, ekologiya va aholi salomatligini saqlash bilan bog'liq dolzarb muammolarni ham hal etishga hamda kelajak avlodlarning musaffo muhitda yashash huquqini kafolatlashga xizmat qiladi.

